

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA - FANLARARO ALOQADORLIK

*Qo'qon universiteti Ta'lim
kafedrası katta o'qituvchisi*

Komiljonova Guluzra Nizomjon qizi
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi
Madumarova Mo'bina

Annotatsiya: ushbu maqolada integratsiya, boshlang'ich ta'limda fanlararo aloqadorlik jarayoni haqida ma'lumot berilgan va boshlang'ich ta'limda integratsiyalangan darslarni tashkil etish borasida takliflar berilgan va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, o'qituvchi, boshlang'ich ta'lim, o'quvchi, pedagog, bog'liqlik, fanlararo aloqadorlik, integratsiya, integratsion darslarni tashkil etish.

Fanlarning o'zaro aloqadorliklari va ularni integratsiyalash faqat bizning davrimizga xos bo'lgan muammo emas, balki bizdan oldingi ko'plab olimlar ham aynan shu mavzu borasida ko'plab ishlar olib borishgan va o'z fikrlarini bayon etishgan. Hozirda ham ta'lim tizimida integratsion darslarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Integratsiya tushunchasiga adabiyot, ilmiy adabiyotlarda bu borada tadqiqotchi olimlar tomonidan bir-biriga yaqin bir necha xil ta'riflar berilgan.

“Integratsiya” so'zi lotincha integration tiklash, to'ldirish, “integer” butun so'zidan kelib chiqqan. Integratsiya tushunchasi quyidagi ikki xil jarayon sifatida talqin etiladi.

D. Lokkning so'zlariga qaraganda: “Ta'lim mazmunining aniqlanishida bir fan boshqa fanlar elementlari va faktlari bilan to'ldirilishi kerak.” Xuddi shu kabi fikr I.V.Pestallossining didaktik maqolasida ham “Bir-biri bilan bog'liq fanlarni onggingga keltir, ularni tabiatdagi uzviy bog'liqlik holatida ekanini angla.” so'zlari orqali ham olg'a surilgan. Shu bilan birga Pestalossi o'z maqolasida ikki fanning bir-biridan uzoqlashishi xavf ekanini aytadi. Bu fikrlardan ham anglashimiz mumkin bo'lganidek fanlararo aloqadorlik va integratsiyalash deganda biz ikki va undan ortiq turli fanlarni bir-biridan ajratmagan holda ularni bir darsda foylanishni va ularning o'zaro uzviy bog'lay olishni ko'zda tutamiz. Integratsiya ta'lim sifatining yuqori darajalarga ko'tarilishiga sabab bo'ladi, shu bilan birgalikda innovatsion o'qitish imkoniyatlarini ham beradi. Bunday darslar orqali o'quvchilar nazariy olgan bilimlarini amalda qo'llashni o'rganishadi va endilikda ular nafaqat fanlarni, balki barcha predmetlarni ham uzviy ekanligini tushunishadi. Bu esa ularning darsga, atrof-muhitga bo'lgan qarashlarini o'zgartiradi, qiziqishlarini orttiradi.

Hozirda “Qaysi fanlarni integratsiya qilish mumkin?”, “Qanday qilib integratsiyalangan dars tashkil qilish mumkin?” kabi savollarga duch kelyapmiz va ularning javobi har bir pedagog uchun ham muhim albatta. Lekin integratsiya tushunchasi bugungi kunda pedagoglar uchun yangilik deyolmaymiz, chunki K.D.Ushinskiy davridanoq savodxonlik va o‘qish, yozish darslari integratsiyalangan edi.

Boshlang‘ich bosqichlarda fanlarni integratsiyalash dars samaradorligini oshiradi, vaqtdan unumli foydalanishga yordam beradi, darsning esa o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini yuqori darajalarga ko‘taradi. Boshlang‘ich ta’limda asosan biz pedagoglar ona tili va o‘qish, tasviriy san’at, texnologiya va tabiiy fanlar kabi darslarni integratsiyalashga katta imkoniyat mavjud. Deylik biz o‘qish fanidan “Kuz” mavzusini o‘tayapmiz, bunda sinf xonasidan chiqqan holda darsimizni integratsiya qilib, yanada qiziqarli tarzda tashkil qilishimiz mumkin. Bolalarga tabiatni o‘rgatib, kuzda qanday mevalar pishishi va bu fasl qanday ekanligini tushuntiramiz. Albatta mavzudan cheklashmagan holda birgalikda gerbariy yasashimiz va o‘quvchilarga kuz haqidagi qisqa she’rlardan yodlatishimiz ham maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu bilan biz darsning nafaqat samaradorligini, balki uning ko‘tarinki ruhda o‘tishini ham ta’minlagan bo‘lamiz. Bu esa bolaning fanga bo‘lgan ishtiyoqini oshiradi, mavzuni keng va chuqurroq doirada tushunishiga sabab bo‘ladi. Bunday paytlarda bolalar o‘tilgan mavzuni har doimgidanda yaxshi eslab qolishadi.

Fanlarni integratsiya qilib dars o‘tilganda quyidagilarga e’tibor berish kerak.

- har bir dars muayyan maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak;
- fanlararo aloqalarga oid tanlangan qo‘shimcha material o‘tiladigan mavzu bilan bog‘lanishi shart.

Integratsiyalangan dars boshqalariga nisbatan samaraliroq bo‘lishi bilan birga, ayni vaqtda murakkab hamdir. Ammo boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari deyarli barcha fanlardan o‘zlari dars berayotganliklari uchun bu jarayon ularga unchalik ham qiyinchilik tug‘dirmaydi deb o‘ylayman. Unutmasligimiz kerakki, integratsiyaning asosi ham bilim bilan bo‘ladi, ya’ni pedagoglar nimalarnidir bir-biriga shunchaki bog‘lash uchun emas, mantiqiy jihatdan bog‘likligi yuqori bo‘lishi uchun dars tashkil etayotganliklarini yodda tutishlari lozim. Ammo maktabning ilk boshlanish bosqichlarida integratsiya usulidan chetda turish yoki undan kamroq foydalanish maslahat beriladi. Chunki maktabga endi maktabga qadam qo‘ygan kichik yoshli ta’lim oluvchlarning bilim zahiralarini fanlarni o‘zaro bog‘lash uchun yetarli bo‘lmisligi ham mumkin. O‘quvchilar ma’lum bilim sohasini egallab olgandan keyin esa bunday darslarni tashkil etish ancha samarali bo‘ladi. Bu holatda ular uchun ham chalkashlik sodir bo‘lmaydi. Fanlararo aloqadorlikdan dars paytida foydalanayotgan pedagoglar o‘quvchilarining bilim zahiralarini, anglash salohiyatlari, o‘zlashtirish mahoratlari va mavzuning asosiy maqsadini hisobga olishlari zarur.

Darslarni integratsiya qilish orqali biz o'quvchilarimizga nafaqat bilim, balki boshqa tarbiyaviy jihatlarni ham o'rgatishimiz mumkin. Masalan aytaylik "Oila" mavzusini o'tilmoqda va bu dars jarayonida biz o'quvchilarimizga nafaqat oila muqaddas ekanligi, ota-onaga hurmat, oilaning hayotimizdagi o'rnini o'rgatish lozim. Shu bilan birgalikda ularga oila haqida matn tuzishlarini aytgan holda, yozish va fikrlash qobiliyatlarini o'stiramiz. Shunda biz o'qish, savodxonlik va tarbiya fanlarini uzviy bog'lay olamiz. Dars so'ngida esa o'quvchilarning ishtiyoqlarini yanada oshirish uchun: "Har kim o'z oilasining rasmini chizsin"- deya ularga topshiriq berish ham mumkin. Integratsiyalangan dars boshqa dars turlariga qaraganda farqliroq, bizning hisobga olishimiz kerak bo'lgan yana bir muhim jihat bu - o'quvchilarning yosh darajasi va o'zlashtirish holatlaridir. Darsni integratsion tarzda tashkil qilish maqsadida, qiziqarli bo'lishini ko'zlagan holda juda ko'p interaktiv metodlardan o'rinsiz foydalanish o'quvchilarning mavzuni tushunmasliklariga yoki fanlardan butunlay sovib qolishliklariga olib kelishi ham mumkin. Shuning uchun ham integratsiya darslarni tashkil etishdan oldin avvalo bu borada ma'lum bilim va o'quvlarni egallashlari va bunday darslarni tashkil etish uchun dars rejasini ishlab chiqib alohida katta tayyorgarlik ko'rish talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, har bir o'qituvchi va pedagog modomiki bu ta'lim-tarbiya sohada ish olib borar ekan, unga va undagi usul, qoida va tamoyillarga e'tiborli bo'lmog'i, mas'uliyat bilan yondoshmog'i kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.A. Mavlonova N.H.Rahmonqulova „Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi" Toshkent - .ILM ZIYO. - 2009
2. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. – Toshkent, Universitet, 1998
3. Hasanboyev J., To'raqulov X.A., Ravshanov O.A., Kushvaktov N.H. Milliy pedagogikamiz tarixiy ildizlari va barkamol avlod tarbiyasi. – Jizzax: 2007.
4. Kutlimuratova, N. R. BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTEGRATSIYON O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .
5. BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KASBIY-PEDAGOGIK MULOQOTGA TAYYORLIGINI SHAKLLANTIRISH Mahmud Sobirovich Nishanov, Ra'Noxon Gulmirzayevna Alimqulova
6. Ashurbayeva R. Ta'lim tizimida integrativ yondashuvdan foydalanish // BuxDU ilmiy axboroti (ISSN 2181-6875).–Buxoro, 2019, № 4 (75).
7. qizi Abduraxmonova N. A. BO 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINF O 'QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 12. – C. 208-211.
8. Diyoraxon S., Komiljonova G. BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA CHET EL O 'QUVCHILARINI BAHOLASH MEZONI VA SAMARALI TAQDIRLASH //QO

- ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. – 2023. – C. 783-785. Diyoraxon, Sobirova, and Guluzra Komiljonova. "BOSHLANG ‘ICH TA’LIMDA CHET EL O ‘QUVCHILARINI BAHOLASH MEZONI VA SAMARALI TAQDIRLASH." *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI* (2023): 783-785. Diyoraxon, S., & Komiljonova, G. (2023). BOSHLANG ‘ICH TA’LIMDA CHET EL O ‘QUVCHILARINI BAHOLASH MEZONI VA SAMARALI TAQDIRLASH. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 783-785.
9. Pozilov Hamidjon Ikromjon o‘g‘li, & Komiljonova Guluzra Nizomjon qizi. (2023). YOSH AVLOD KAMOLOTIDA TEXNOLOGIYA FANI VA UNING KELAJAGI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 923–926. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.760>. Pozilov Hamidjon Ikromjon o‘g‘li, and Komiljonova Guluzra Nizomjon qizi. “YOSH AVLOD KAMOLOTIDA TEXNOLOGIYA FANI VA UNING KELAJAGI”. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, vol. 1, no. 1, May 2023, pp. 923-6, doi:10.54613/ku.v1i1.760.
 10. qizi Komiljonova, Guluzraxon Nizomjon. "FANLARARO BOG ‘LANISH ASOSIDA BOSHLANG ‘ICH TA’LIMNI AMALGA OSHIRISHNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI." *Educational Research in Universal Sciences* 2.12 (2023): 198-201. qizi Komiljonova, G. N. (2023). FANLARARO BOG ‘LANISH ASOSIDA BOSHLANG ‘ICH TA’LIMNI AMALGA OSHIRISHNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 198-201.
 11. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 208–211.
 12. qizi Komiljonova G. N. FANLARARO BOG ‘LANISH ASOSIDA BOSHLANG ‘ICH TA’LIMNI AMALGA OSHIRISHNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI // *Educational Research in Universal Sciences*. – 2023. – T. 2. – №. 12. – C. 198-201.
 13. Sadriddinova Zulfiya. (2024). BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISH-DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(1), 188–193. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/644>
 14. Komiljonova Guluzra, & Mahmudjonova Sevaraxon. (2024). BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QUVCHILARINI IJODIY FAOLIYATGA O‘RGATISHDA TEXNALOGIYA TA’LIMINING O‘RNI. *University Research Base*, 282–287. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/91>
 15. Komiljonova Guluzraxon Nizomjon qizi. (2023). FANLARARO BOG‘LANISHLAR ASOSIDA TALABALARNI BILIM VA

- KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 9(9), 187–192. <https://doi.org/10.54613/ku.v9i9.867>
- Komiljonova Guluzraxon Nizomjon qizi. "FANLARARO BOG'LANISHLAR ASOSIDA TALABALARNI BILIM VA KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH". *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, vol. 9, no. 9, Dec. 2023, pp. 187-92, doi:10.54613/ku.v9i9.867.
16. Kalendarova, Z. K. Kalendarova, Z. K. (2024). O 'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV SAVODXONLIGINI TA'MINLASHDA DARS MATERIALLARINI TANLASH. *University Research Base*, 17-
17. Kalendarova, Z. K. "O 'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV SAVODXONLIGINI TA'MINLASHDA DARS MATERIALLARINI TANLASH." *University Research Base* (2024): 17-23.
18. Kalendarova, Z. K. (2024). INTEGRATSIYA NEGIZIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(2), 189-195.
19. Kalendarova, Z. K. "INTEGRATSIYA NEGIZIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH." *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION* 1.2 (2024): 189-195.
20. AVLOD SHAKLLANISHIDA PEDAGOGIKANING O'RNI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 788–789. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.717>. Komiljonova, G. N. qizi. (2023). FANLARARO BOG'LANISH ASOSIDA BOSHLANG'ICH TA'LIMNI AMALGA OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 198–201. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5505>
21. Diyoraxon, S., & Komiljonova, G. (2023). BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA CHET EL O 'QUVCHILARINI BAHOLASH MEZONI VA SAMARALI TAQDIRLASH. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 783-785.